



HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA JAMIYATNING ROLI HAMDA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Tojiyeva Guljahon

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi
34-sonli maktabning Tarbiya va huquq fani o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15193161>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 11- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Bizda huquqiy ong deganda yana bir muammo bor: kimga qanday masalada murojaat qilish kerakligini bilmaymiz

ABSTRACT

Jamiyat ahlining huquqiy savodxonligi, huquqiy ongi bevosita shaxsiyat bilan, uning madaniy-ma'naviy saviyasi bilan bog'liq. Saylovlarning yoritilishida nisbatan oshkoralik, shaffoflik kuzatilgani uchunmi, ayrim fuqarolarning o'z huquqlarini anglamasligi, bu jamiyatimizdagi eng katta kamchilik ekani yaqqol ko'rinib qolmoqda. Biz yurtning ravnaqi uchun o'zini mas'ul deb biladigan, o'z huquq va burchlarini ongli ravishda his qiladigan fuqarolik jamiyati qurish yo'lida qanday qadam tashlayapmiz?

Jamiyat ahlining huquqiy savodxonligi, huquqiy ongi bevosita shaxsiyat bilan, uning madaniy-ma'naviy saviyasi bilan bog'liq. Saylovlarning yoritilishida nisbatan oshkoralik, shaffoflik kuzatilgani uchunmi, ayrim fuqarolarning o'z huquqlarini anglamasligi, bu jamiyatimizdagi eng katta kamchilik ekani yaqqol ko'rinib qolmoqda. Biz yurtning ravnaqi uchun o'zini mas'ul deb biladigan, o'z huquq va burchlarini ongli ravishda his qiladigan fuqarolik jamiyati qurish yo'lida qanday qadam tashlayapmiz?

Bizda huquqiy ong deganda yana bir muammo bor: kimga qanday masalada murojaat qilish kerakligini bilmaymiz. Bizni qiynaydigan narsa shuki, hokimlikning vakolati yoki sudning vakolatiga kiradigan ishlar bo'yicha ham vazirlikka murojaat qilinadi. Masalan, sanitar holat obodonlashtirish masalasi bo'lishicha Oliy Majlis deputati emas, mas'ul tashkilotlar hal qilishi kerak. Individual xususiyatga ega bo'lgan, barchaga tatbiq etib bo'lmaydigan masalalarni javobgar tashkilotning o'zi hal qilishi lozim. Biror huquqiy vakolatga ega shaxs qilishi lozim bo'lsa, xalq o'sha hududdan saylangan deputatning vakolati ekanligini anglab olishi kerak.

"Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-harakatlarimiz besamar ketaveradi. Bugun odamlarning dunyoqarashi, ongi, tafakkurini o'zgartirish mana shu masala bilan chambarchas bog'liq".

Yana bir misol, biz sudning mustaqilligini haqida ko'p gapiramiz. Aslida, sudning ishiga aralashishga hech kimning haqqi yo'q. Sud bilan bog'liq masalani sudning o'ziga murojaat qilib yechish kerak. Buni boshqa tashkilotlarga murojaat qilgan bilan ish yana sudning o'ziga topshiriladi. Bunday ovoragarchilikning oldini olishda ham huquqiy ong muhim ahamiyatga ega.

– Xo'sh, o'sha huquqiy ongning qanday shakllantirish mumkin?

Huquqiy ong, avvalo, oilada shakllanadi. Biz kundalik turmushimizda duch keladigan qonun-qoidalar bor. Masalan, voyaga yetmagan bolasiga do'kondan sigaret yoki spirtli ichimlik olib kelish buyuradi. Qonunan olganda, sotuvchi unga bu mahsulotlarni sotishga haqqi yo'q. Lekin bunga befarqlik oqibatida odatiy hol sifatida qaraladi. Yoki yo'l harakati qoidalarini olaylik, ota-onaning o'zi o'rnak bo'lishi kerak bo'lgan o'rinda qoidani buzadi. Uni ko'rgan bola bundan keyin to'g'ri harakatlanadimi? Bola uchun ota-ona hamisha ideal namuna hisoblanadi. Demak, huquqiy ong oiladan boshlanishi kerak. Bolaning dunyoqarashi shakllanishida, ertaga mustaqil qaror qabul qilishida ham ota-ona namuna bo'lishi kerak. Farzandni urish mumkin emasligi, erkakning ayoliga qo'l ko'tarishi kabi holatlar tarbiyaga ham, huquqiy ongga ham ta'sir ko'rsatadi. Huquqni o'rgatish faqat ta'limga tashlanmay oilada ham olib borilsa, oson va yaxshi natijaga erishiladi. Yana bir masala – maktablarda davlat va jamiyat huquqi bilan bog'liq fanlarni chuqurlashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish kerak. Faqat nazariy kitobda chiroyli gaplarni aytavergan bilan u quruq ma'lumot bo'lib qoladi. Menimcha, bu borada mutaxassis – amali-yotchilarni ham ko'proq jalb qilish kerak. Palament haqida mavzu bo'lyaptimi, o'quvchi shu bosqichdan o'tgan, amaliyotni o'tagan kimdir bilan ko'rishishi kerak. Nazarimda, hech qaysi davlat idorasi vakili bu uchrashuvlarni rad etmaydi, chunki bugun vaziyat shuni taqozo qilyapti.

Davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor. Biz qisqa qilib, buning uchta jihatini sanab o'tamiz:

- birinchidan, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo'lishi lozim;

- ikkinchidan, rivojlangan jamiyat a'zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo'lishi kerak;

- uchinchidan, davlat fuqarolarining jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi mavjud bo'lishi shart.

To'g'risini aytish kerak, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda ko'pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan xabardorlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchala omilni ham o'z ichiga oladi. Chunki, huquqiy madaniyati yuksak insonlar qonunlarga itoatkor bo'ladi, hamisha unga bo'ysinadi va qonunlarga nisbatan hurmat bilan qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid hatti-harakat qilmaydi, aksincha, boshqalarni ham qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaslikka da'vat etadi. Aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida 2019 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga itoatgo'ylik va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat a'zolari huquqiy xulq-atvoriga ega bo'lishi va odob-axloq qoidalariga

rioya etishi, ular huquqiy madaniyatini oshirishga ham yordam beradi. Yangi jamiyat kishilarining odob-axloqi, eng avvalo, jamiyatda kishining xulqi, yurish-turishi va hayot faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish — O'zbekistonning strategik maqsadi qilib qo'yilgan har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, qonun ustuvor bo'lgan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo'shilishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoqubov J., Hayitboyev E. Huquqshunoslik. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2006
2. Abdusalomov M. O 'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik. II qism. — T.: 1999.
3. Xolmo'minov Q.T. Davlat va huquq nazariyasi. — T.: 1998.
4. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. D avlat va huquq asoslari. — T.: «Sharq», 2002



INNOVATIVE
ACADEMY